

MATNSHUNOSLIKDA O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusupalieva Shakhnoza Hakimjanovna,

Oriental Universiteti katta o'qituvchisi,

uyshaxnoza@gmail.com, telefon +998974703553

Majidova Mohlaroyim Adaxamjon qizi

Oriental Universiteti talabasi

mohlaroyim2807@gmail.com, telefon +998941074869

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, lingvistik, stilistik va madaniy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. O'zbek tiliga tarjima qilishda uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari, leksik farqlari hamda madaniy tafovutlari tufayli muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: Lingvistik, aqli, sintaksis, leksik, idiomatik, grammatical, interfeyslari, kodlash, shrift.

Abstract. This article analyzes the main problems arising in translation into Uzbek, including linguistic, stylistic and cultural difficulties. Certain difficulties arise when translating into Uzbek language due to its specific grammatical features, lexical differences and cultural differences.

Keywords: Linguistic, intellectual, syntactic, lexical, idiomatic, grammatical, interfaces, encoding, font.

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие при переводе на узбекский язык, в том числе лингвистические, стилистические и культурологические трудности. Определенные трудности возникают при переводе на узбекский язык из-за его специфических грамматических особенностей, лексических различий и культурных различий

Ключевые слова: Лингвистический, интеллектуальный, синтаксический, лексический, идиоматический, грамматический, интерфейсы, кодировка, шрифт

“Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda”¹.

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev vatandoshlarini 2023-yil 21-oktabr kuni nishonlanadigan O'zbek tili bayrami bilan tabriklagan nutqidan.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda o‘zbek tilini raqamlashtirish borasida jiddiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekcha matnlarni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash va o‘zbek tilida muloqot qilishga mo‘ljallangan “aqli” dastur ishlab chiqilib, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning veb-sayti yaratildi.

Ayni paytda o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, ularni lotin va kirill yozuviga o‘girish va so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘rsatishga mo‘ljallangan elektron dasturlar ham amaliyotda faol qo‘llanmoqda.

Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek tili tarix davomida fors, arab va rus tillarining ta’siriga uchrab, sezilarli lingvistik o‘zgarishlarga duch kelgan. Globallashuv va texnologik taraqqiyot o‘zbek tarjima amaliyotining rivojlanishiga turki bergen bo‘lsa-da, tarjimonlar hali ham ingliz va boshqa tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida turli muammolarga duch kelmoqdalar. Ayniqsa adabiy matinlar va iborlarni tarjima qilish. O‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada tarjima jarayonining lingvistik, madaniy va texnik jihatlariga oid asosiy qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek tiliga tarjima qilishdagi leksik muammolar uchrab, o‘zbek tiliga tarjima qilishda eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, manba tilida mavjud bo‘lgan so‘z yoki iboralarning o‘zbek tilida aniq ekvivalentga ega emasligi bilan bog‘liq. Tarjima jarayonida so‘zlarning ma’nosи, uslubiy xususiyatlari va kontekstga bog‘liq holda to‘g‘ri ekvivalentini topish bilan bog‘liq qiyinchiliklardir. Bunday holatlar turli sabablar bilan yuzaga keladi:

1. Terminologianing yo‘qligi – O‘zbek tilida zamонавиј ilm-fan, texnologiya, biznes va ijtimoiy sohalar bo‘yicha barcha tushunchalar uchun tayyor terminlar mavjud emas.

2. Madaniy tafovutlar – Har bir til o‘ziga xos madaniy muhitga ega bo‘lib, bu ba’zi tushunchalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinishini qiyinlashtiradi.

3. Ko‘p ma’nolilik – Ayrim so‘zlarning bir necha ma’noga ega bo‘lishi tarjima jarayonida noaniqlik va qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

O‘zbek tiliga tarjima qilishda asosiy qiyinchiliklardan biri ko‘plab xorijiy so‘zlar va tushunchalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti mavjud emasligidir. O‘zbek leksikasi boy bo‘lishiga qaramay, zamонавиј fan, texnologiya yoki biznes sohalariga oid tushunchalarni to‘g‘ri yetkazish har doim ham oson emas². Bu holat quyidagilarni talab qiladi:

- Iqtiboslash: Rus, arab yoki ingliz tillaridan olingan so‘zlardan foydalanish.
- Kalkalash: Xorijiy atamalarni bevosita tarjima qilib yangi so‘zlarni yaratish.
- Parafraz qilish: Tushunarsiz atamalarni tavsiflovchi iboralar yordamida izohlash.

²Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.

O‘zbek tiliga tarjima qilishda leksik muammolarni yengish uchun kontekstni to‘g‘ri tushunish, madaniy tafovutlarni inobatga olish va terminlarni standartlashtirish zarur. Shuningdek, frazeologizmlar va ko‘p ma’noli so‘zlarni to‘g‘ri ekvivalent topish orqali tarjima sifatini oshirish mumkin.

Grammatika va sintaksis farqlari. Grammatika va sintaksis har bir tilning asosiy tuzilish qoidalarini belgilaydi, lekin turli tillar o‘rtasida grammatic va sintaktik farqlar mavjud bo‘lib, tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Quyida grammatic va sintaksis jihatidan asosiy farqlarni ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilining grammatic tuzilishi, ayniqsa, hind-yevropa tillari, jumladan, ingliz tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Asosiy sintaktik muammolar quyidagilardan iborat:

- So‘z tartibi: O‘zbek tili subyekt-obyekt-fe’l (SOV) tartibiga amal qiladi, ingliz tilida esa subyekt-fe’l-obyekt (SVO) tizimi mavjud.

- Artikllarning yo‘qligi: O‘zbek tilida “the” yoki “a/an” kabi artikllar mavjud emas, bu esa tarjimada ma’lumlik va noaniqlikni kontekst orqali ifodalash zaruratini tug‘diradi³.

- Fe’l morfologiyasi: O‘zbek tilida fe’llarning ma’no va shaklini o‘zgartirish uchun turli affikslar qo‘shiladi, bu esa ingliz tilidan tarjima qilish jarayonini murakkablashtiradi.

O‘zbek tiliga tarjima qilishda grammatic va sintaktik farqlarni hisobga olish lozim.

Idiomatik iboralar va madaniy moslashtirish. Ingliz yoki rus tilidagi ko‘plab idiomatik iboralar o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emas. So‘zma-so‘z tarjima natijasida ma’no yo‘qolishi yoki g‘ayritabiiy iboralar paydo bo‘lishi mumkin⁴. Shuning uchun tarjimonlar quyidagi usullardan foydalanishlari kerak. Madaniy jihatidan mos ekvivalentlarni topish (masalan, “break a leg” iborasini “omadingni bersin” deb tarjima qilish), asl ma’noni saqlab qolgan holda izohlash yoki parafras qilish.

Rasmiylik darajasi va uslub tanlovi. Tilning rasmiylik darajasi va uslub tanlovi tarjimada muhim omillardan biridir. Turli kontekstlarda matnning uslubi, rasmiylik darajasi va ohangi o‘zgarishi lozim. Agar bular inobatga olinmasa, tarjima sun’iy yoki tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. O‘zbek tilida rasmiy va norasmiy nutq shakllari aniq ajratilgan bo‘lib, tarjimada bunga e’tibor berish muhimdir. Tarjimonlar quyidagi jihatlarni inobatga olishlari maqsadli auditoriya (masalan, ilmiy matnlar va og‘zaki nutq uchun mos uslubni tanlash), kontekst (masalan, rasmiy hujjatlar yoki ijtimoiy tarmoq postlari)⁵.

³ Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.

⁴ Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins Publishing.

⁵ O‘zbek Tili Akademiyasi (2020). *Zamonaviy o‘zbek grammaticasi va leksikasi*. Toshkent.

O‘zbek tiliga tarjima qilishda rasmiylik darajasi va uslubni to‘g‘ri tanlash tarjimaning sifatini belgilaydi. Rasmiy hujjatlar, ilmiy matnlar, norasmiy suhbatlar yoki badiiy asarlar tarjima qilinayotganda uslubning mos bo‘lishi lozim. Tarjima tabiiy va aniq chiqishi uchun har doim kontekstga mos keluvchi uslub tanlanishi kerak.

Texnik va raqamli tarjima muammolari. Texnik va raqamli tarjima boshqa turdagи tarjimalarga qaraganda ancha murakkab jarayondir. Maxsus terminologiya, qisqartmalar, interfeys elementlari va dasturiy ta‘minotga oid so‘zlar aniq tarjima qilinishi kerak. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar tez rivojlanib borayotgani sababli yangi so‘z va atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tiliga tarjima qilishda lingvistik, madaniy, texnik va uslubiy muammolar mavjud bo‘lib, ularni yengish uchun tarjimonlardan keng bilim, madaniy tushuncha va til sezgirligi talab etiladi. Tarjimani sifatlari bajarish uchun ilg‘or tarjima usullari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Leksik kamchiliklar, grammatik farqlar va madaniy tafovutlarni hisobga olish aniq va tabiiy tarjimalarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tarjima sohasiga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, ushbu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun ilmiy izlanishlar va maxsus tarjima vositalarini ishlab chiqish zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev vatandoshlarini 2023-yil 21-oktabr kuni nishonlanadigan “O‘zbek tili” bayrami bilan tabriklagan nutqidan.
2. Mirziyoyev. Sh. M., /Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi/, 2016-yil 7-dekabr – Toshkent: /O‘zbekiston NMIU., 4-5c.,
3. Yusupalieva S. Developing Students Communicative Competence using Authentic Materials with Information Technologies //International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 59-62.
4. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
5. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
6. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
7. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins Publishing.
8. O‘zbek Tili Akademiyasi (2020). Zamonaviy o‘zbek grammatikasi va leksikasi. Toshkent